

## OILADA EMOTSIONAL BEFARQLIK: SABABLARI VA PSIXOLOGIK OQIBATLARI

*Vaxabova Sojida Sulton qizi*

*TMC instituti pedagogika va psixologiya  
fakulteti 4-bosqich talabasi*

Oilada emotsional befarqlik — bu oila a’zolarining bir-birining hissiyotiga, ehtiyojiga, kayfiyatiga yoki ruhiy holatiga befarq bo’lishi, ya’ni hissiy aloqa sustlashishi yoki uzilishi.

Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida m’lum bir vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta’sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o’rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) vazifalarini hisobga olish lozim. Barcha oldingi jamiyatlarda oila quyidagi asosiy vazifalarni bajargan: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv). Bu haqda Sharq allomalari Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va boshqalar o’z asarlarida yozib qoldirganlar.<sup>1</sup>

Emotsional befarqlikni sabablari

- 1 stress va ruxiy charchoq
- 2 Depressiya yoki havotir
- 3 Bolalikdagi travmalar
- 4 Kanfiliklar va ularni hal qilaolmaslik
- 5 Ro’llar buzilishi
- 6 emotsional savodxonlikni yo’qligi

Er va hotin birinin yaxshi ko’rmasdan oila qurishadi buning natijasida oilada sovuqchilik paydo bo’ladi. Bir-birlarini tushunishmaydi va tushunishni hohlamaydi ham. Oila notinch bo’lgandan keyin undan tug’iladigan farzandlar ham psixologik tarafdin tarbiyasi buziladi. Ota va ona ham farzandga e’tiborsiz, bolaga sovuq munosabatlar shakllanishi mumkin .Masalan: onasi ishdagi muammolarni uyga olib keladi, bolalarga baqiradi, bu esa oila muhitini taranglashtiradi. Emotsional yetishmovchilik—oilal a’zolari bir-birini eshitmaydi, his-tuyg’ularini ifoda etmaydi. Masalan: ota “erkak odam his-tuyg’usini bildirmaydi” deb o’ylaydi va bolasi bilan samimiy suhbat qilmaydi .Yana bir holatda otasi bolaligida urilgan, endi o’zi ham bolasini tarbiya sifatida urishni to’g’ri deb biladi. <sup>2</sup>

Bir donishmand inson loqaydlik haqida shunday degan edi: “Dushmanlardan qo’rqma — nari borsa, ular seni o’ldirishi mumkin. Do’stlardan qo’rqma — nari borsa,

ular senga xiyonat qilishi mumkin. Loqayd odamlardan qo‘rq — ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi”. Afsuski, bolalari kelajagi bilan qiziqmagan, ularning taqdiriga yillar davomida loqayd bo‘lib kelgan ota-onalar g‘isht qolipdan ko‘chgandan keyin ming marta attang, deb boshni changallab o‘tirishadi. Ammo, qani endi, bundan biror-bir naf bo‘lsa. Holbuki, xoh o‘g‘il bo‘lsin, xoh qiz bo‘lsin, oila kattalari avval boshdanoq ularning har bir qadam qo‘yishini kuzatib, kerak joyda tanbeh berib, bu yo‘ldan qaytarishi zarur edi. Agar ota-ona ogoh bo‘lib ko‘zining oqu qorasini maktab, kollej yoki ko‘chada kimlar bilan do‘stlashayotganini, darsdan keyin nima mashg‘ulot bilan bandligi-yu, qayoqqa borayotganini so‘rab-surishtirib, tergap turganida, vaqtida nazorat qilganida, shubhasiz, bunday noxushliklarning oldi olingan bo‘lardi.

Shuni ham bilib qo‘yishimiz lozimki, loqaydlik hukm surgan oilada farzandlarning bebosh, bemehr bo‘lib o‘sishi, oxir-oqibatda ota-onani kuydirishi ajablanarli hol emas. Shuningdek, loqayd kimsa rahbarlik qiladigan idorada ishlarning orqaga ketishi, tibbiyot maskanida esa bemorlarning hayoti xavf ostida qolishi turgan gap. Bundan kelib chiqadiki, loqaydlikning miqyosi va darajasining ham, u keltirayotgan zararining o‘lchov-me‘yorini ham o‘lchashning imkoni yo‘q.<sup>3</sup>

Xulosa o‘rnida shuni aytishim joizki oilada emotsional befarqlik bir-birini extiyojlariga javob bermasligi, mehr, etibor samimiy qo‘llab quvvatlashni yetishmasligi murakkab psixologik holatdir. Bu jarayonga sabab haddan tashqar bandlik, ruxiy charchoq, shaxsiy travmalar va bir nechta faktorlar mavjuddir. Buning oqibatlari esa faqat oiladagi hissiy muhitga balki oilada faravonlikka salbiy tasir ko‘rsatadi. Bunday oilada ulg‘aygan bolalar havotir, ishonchsizlik, o‘ziga bolgan baxosi pastligi, kattalarda esa emotsional masofa depressiv kayfiyat munosabatlardagi sovuqlik va motivatsiyani tushishi kuzatiladi, shu bois oilada emotsional befarqlikni bartaraf etish uchun avallo ochiq muloqotni kuchaytirish soglom psixologik muhit yaratishga intilish zarur

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'. B. Shoumarov, L O. Haydarov, N. A. Sog'inov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetova OILA PSIXOLOGIYASI «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT - 20 II. 47 Bet
2. Eshmatova.M.K JOURNALOFIQRO–ЖУРНАЛИҚРО–IQROJURNALI– volume18,issue 02,2025 95Bet
3. Karimov Olimjon Peshku tuman "Bobo-Arab" jome'masjidi imom xatibi O‘zbekiston musulmonlari idorasi buxaro viloyati vakilligi Loqaydlik va beparvolik oqibati 02 mart 2018 й